


VII. ISTE'MOL BOZORI

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3719,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 302,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,3 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 877,2 mlrd. so'mni (108,5 %), savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagisi tadbirkorlar tovar aylanmasi 2539,9 mlrd. so'mni (102,1 %) tashkil etdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda
(2022- yil yanvar-mart oylarida)**




2022- yilning yanvar- mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Nodavlat mulki 3 719,7 mln. so'mni umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 100,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Qarshi shahri 24,9 %, Chiroqchi 11,4 %, Koson 10,2 %, Shahrisabz shahri va Kitob tumanlari 7,3 %, Qamashi va Yakkabog' tumanlari mos ravishda 5,3 % hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, G'uzor tumani 4,0 %, Qarshi tumani 3,9 %, Shahrisabz va Dehqonobod tumanlari mos ravishda 3,7 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.




Qashqadaryo viloyatida tuman va shaharlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Jumladan, 2022- yilning yanvar- mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 94,1 mlrd. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 % oʼsish kuzatildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,3 % ulushi kichik tadbirkorlik subʼektlari ulushiga toʻgʼri kelmoqda.

Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi, foizda



Umumiy ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1089,0 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi shahrida (3253,0 ming so'm), Shahrisabz shahrida (1910,3 ming so'm), Koson (1273,9 ming so'm), Muborak tumanida (1143,9 ming so'm) kuzatildi.


Chakana tovar aylanmasi umumiyligi (umumiyligi ovqatlanishni qo'shgan holda)
(2022-yil yanvar-mart)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mldr. so'm</i>	<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan, % hisobida</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan, % hisobida</i>
Qashqadaryo viloyati	3719,7	104,7	1089,0	102,4
G'uzor	147,2	109,2	691,7	106,8
Dehqonobod	138,0	86,3	898,7	84,4
Qamashi	198,3	92,2	705,2	90,2
Qarshi	143,4	111,8	552,1	109,0
Koson	379,9	101,8	1 273,9	99,4
Kitob	270,8	123,0	996,6	120,7
Mirishkor	126,4	102,6	1 017,0	100,5
Muborak	103,5	88,6	1 143,9	86,7
Nishon	131,4	93,3	823,3	91,2
Kasbi	124,9	88,9	611,5	87,2
Chiroqchi	424,5	105,5	980,2	102,5
Shahrisabz	137,7	104,9	604,7	103,2
Yakkabog'	195,3	109,0	719,1	107,0
Qarshi sh.	925,2	107,3	3 253,0	105,1
Shahrisabz sh.	273,2	121,6	1 910,3	119,7

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 677,4 mld. so'mni tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga nisbatan 96,1% ga kamayish kuzatildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirdorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, 608,5 mld. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,1 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 89,8 %ni tashkil qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida hududlarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 45,3 % ga kamayib, 68,9 mld. so'mni tashkil etdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 10,2 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi

(2022- yil yanvar-mart)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-martga nisbatan, % hisobida</i>
Qashqadaryo viloyati	677,4	96,1
G‘uzor	18,5	2,1 m.
Dehqonobod	1,2	4,2
Qamashi	8,7	84,6
Qarshi	28,2	61,6
Koson	34,8	55,2
Kitob	79,9	173,8
Mirishkor	1,1	4,2
Muborak	5,0	30,5
Nishon	7,1	44,8
Kasbi	20,6	165,3
Chiroqchi	23,3	116,1
Shahrisabz	17,6	94,4
Yakkabog‘	16,1	63,2
Qarshi sh.	355,6	118,0
Shahrisabz sh.	59,8	90,5